

TURIZMNING DUNYO VA MAMLAKATIMIZDAGI O'RNI VA O'ZIGA XOS
TURLARI

Anvarbekova (Maxamadjonova) Shoiraxon

ToshDO'TAU Tarjima nazariyasi va amaliyoti fakulteti sinxron tarjima yo'nalishi 2 bosqich
magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada turizmning kelib chiqish tarixi, dunyoda va mamlakatimizda qachon keng tarqala boshlanganligi hamda uning bugungi kundagi turlari tasniflarini o'rganib chiqamiz.

Kalit so'zlar: Turizm, turizm tarixi, o'zbek turizm infratuzilmasi, turizm turlarining tasnifi.

Annotation: In this article, we will study the history of the origin of tourism, when it began to spread widely in the world and in our country, and the classification of its types today.

Key words: Tourism, tourism history, Uzbek tourism infrastructure, classification of tourism types.

Turizm bu insonlar tomonidan maqbul ko'rilgan manzaralarni, tarixiy joylarni, madaniy yodgorliklarni, turli xil millat va elatlarning madaniyatini ko'rish uchun safarlar, sayohatlar, uyishtirishdir. Turizm so'zining lug'aviy ma'nosiga e'tibor bersak: Ham dunyoni ko'rish, bilish, o'rganish, ham dam olish maqsadida tashkil etiladigan sayr-sayohat

Turizm (fransuzcha: our – sayr, sayohat), sayyohlik – sayohat (safar) qilish; faol dam olish turlaridan biri. Turizm deganda jismoniy shaxsning doimiy istiqomat joyidan sog'lomlashtirish, ma'rifiy, kasbiy amaliy yoki boshqa maqsadlarda borilgan joyda (mamlakatda) haq to'lanadigan faoliyat bilan shug'ullanmagan holda uzog'i bilan 1 yil muddatga jo'nab ketishi (sayohat qilishi) tushuniladi.

Turizm tarixi juda qadimiy bo'lib, insoniyat tarixi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, turizm negizi ibtidoiy tuzim davriga borib taqaladi. Qadimgi davrlarda insonlar yashash uchun ov qilish zaruriyati tufayli yashab turgan hududlaridan boshqa bir joylarga: tog'larga o'rmonlarga borishgan va ma'lum bir muddat davomida, to'ljalarini qo'lga kiritmagunicha ortga qaytishmagan. Ov qilish joylariga turli xil belgilar qo'yib, payti kelganida ushbu joydan dam olish hordiq chiqarish o'rnida ham foydalanishgan. Hayotning takomillashuvi natijasida qulay hududlarni faqatgina ov maskani emas balki, yashash hududlariga ham aylantirishgan. Keyinroq esa, faqatgina ov qilish yoki istiqomat qilish uchun emas balki, savdo-sotiq, ta'lim olish, ziyorat qilish va davolanish maqsadlarida ham bir joydan ikkinchi joyga sayohatlar uyushtirila boshlagan. Biroq, biz hozir angelaydiganimiz zamonaviy turizm tushunchasi va uning rivojlanishi, o'rgangan tarixiy manbalarimizning umumlashmasiga ko'ra asosan bir necha bosqichlarda yuzaga kelgan:

1. Qadimgi dunyo turizmi

Qadimgi Misr, Yunoniston va Rim davrlarida turizmning ilk shakllari paydo bo'lgan. o'sha davrda odamlar diniy marosimlar, savdo-sotiq, san'at va madaniyatni o'rganish maqsadida boshqa joylarga safar qilganlar. Masalan, qadimgi misrliklar Nil daryosida sayohat qilishgan va muqaddas joylarga ziyorat uyushtirishgan. Rimliklar esa yirik imperiya bo'ylab yo'l tarmoqlari qurib, safar qilishni osonlashtirgan.

2. O'rta asrlar davrida ziyorat va savdo

O'rta asrlarda turizm asosan diniy ziyoratlar shaklida bo'lgan. Xristian va musulmon dunyosida muqaddas joylarga borish keng tarqalgan edi. Masalan, musulmonlar Makkaga haj ziyoratini amalga oshirishgan, xristianlar esa Quddus kabi muqaddas joylarni ziyorat qilishgan. Shu bilan birga, savdogarlar ham uzoq masofalarga sayohat qilib, turli mamlakatlar bilan savdo aloqalarini yo'lga qo'yishgan.

3. Buyuk geografik kashfiyotlar davri

XV-XVI asrlardagi buyuk geografik kashfiyotlar davrida sayohatlar juda kengaygan. Kristofor Kolumb, Vasco da Gama va Ferdinand Magellan kabi dengizchilar yangi qit'alar va orollarni kashf qilish bilan bir qatorda, o'sha hududlarga borishni imkoniyatini kengaytirdilar. Bu davrda sayohatlar ilmiy, savdo va kolonial maqsadlar bilan amalga oshirilgan.

4. XVIII asr va "Buyuk sayohat" (Grand Tour)

XVIII asrda Yevropada yuqori sinf yoshlari o'zlarini madaniy va ma'naviy jihatdan boyitish uchun "Buyuk sayohat" (Grand Tour)ni amalga oshirganlar. Bu sayohatlar asosan Italiya, Fransiya, Germaniya va boshqa Yevropa mamlakatlariga qaratilgan edi. Bu davrda sayohat qilish yuqori sinfga mansub odamlar uchun bir urf bo'lib, san'at, arxitektura va tarixiy joylarni o'rganish bilan bog'liq bo'lgan.

5. Zamonaviy turizmning boshlanishi

XIX asrda industrial inqilob bilan birga turizm yanada ommalashgan. Bu davrda temir yo'l va bug'li kemalar paydo bo'lib, sayohat qilish arzonroq va tezroq bo'lgan. Shuningdek, bu davrda birinchi marta dam olish maqsadida sayohat qilish odatiy bo'la boshladi. 1841-yilda Tomas Kuk tomonidan tashkil etilgan birinchi ommaviy turistik sayohat esa zamonaviy turizmning boshlanishi sifatida qabul qilinadi.

6. XX asr va mass turizm

XX asrda aviatashuvlarning rivojlanishi bilan turizm ommaviy tus oldi. Ikkinchi jahon urushidan so'ng xalqaro sayohatlar kengayib, ko'plab davlatlar turistik sohani rivojlantirishga kirishdi. Avtomobil va samolyotlar yordamida uzoq masofalarga qisqa vaqt ichida sayohat qilish mumkin bo'ldi. Bu davrda plyaj turizmi, shahar turizmi va tog'li dam olish joylariga sayohatlar keng tarqaldi.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotga ko'ra ham zamonaviy turizm tushunchasi bevosita Tomas Kuk nomi bilan bog'lanib kelmoqda boisi shundaki, ingliz ruhoniysi Tomas Kuk 1843-yilda 1-temir yo'l sayyohligini tashkil qildi. Shundan so'ng u o'zining xususiy turistik korxonasini tuzdi va 1866-yilda dastlabki sayyohlik guruxlari AQShga jo'natildi. Sharqda esa arab sayyohi ibn Battuta 21 yoshida sayohatini boshlab, deyarli barcha Sharq va Shimoliy Afrika mamlakatlarini piyoda kezib chiqdi.

Shu tariqa hozirgi turizm, sayyohlik faoliyati paydo bo'lgan. Izlanishlarimiz natijasida, turizm va sayohat tarixini o'rgangan bir qancha olimlar ushbu tarixni turli xil yondashuvlar asosida davrlashtirishgan, bu esa uning shakllanishini, evolutsiya jarayonlarini va ichki qonuniyatlarini tushunishga yordam bergan. Masalan, rus olimi V.Gritskevich tomonidan taklif etilgan turizm tarixini davrlashtirishning asosini tarixiy-xronologik yondashuv tashkil etadi, unga ko'ra quyidagilar mavjud:

1. antik dunyoda turizmning ilk unsurlarining paydo bo'lishi;
2. o'rta asrlarda turizmning ayrim turlarining rivojlanishi;
3. ma'rifat davrida (XVII - XIX asr boshlari) ta'lim va madaniy tarbiya olish usuli sifatida turizmning shakllanishi;
4. turizmning uyushgan ommaviy harakat shaklida rivojlanishi (XIX asrning 40-yillaridan boshlab)

Amerikalik tadqiqotchi D.Uoker turizm tarixini davrlashtirishda texno industrial (iqtisodiy) yondashuvni asoslab beradi, uning mezoni sayohat vaqtida foydalaniladigan transport vositalarining rivojlanishi hisoblanadi, bu jarayonni besh davrga ajratadi:

1. sanoatdan oldingi davr, ular eng oddiy transport vositalaridan foydalanganlar;
2. temir yo'l transporti davri;
3. avtomobilda tashish davri;
4. reaktiv avialaynerlar davri;
5. dengiz laynerlarida kruizlar davri.

Ushbu tarixni davrlashtirishga xuddi shunday yondashuvni belarus olimi G. Shapoval ham ma'qullaydi. Rossiya tadqiqotchisi L.Voronkova tomonidan turizm va mehmondo'stlik tarixini davrlashtirishning asosi tarixiy davrlarning sifat mezoni hisoblanadi. U quyidagi davrlarni ajratib turadi:

- qadimgi sayohatlar tarixi va mehmondo'stlik an'alarining kelib chiqishi;
- o'rta asrlar madaniyatining sayohat vaqtlari;
- buyuk geografik kashfiyotlar davri;
- XVI-XVIII asrlar Yevropa madaniyatida sayohat va mehmondo'stlik an'analari;
- XIX asrda mehmondo'stlik va turizm sanoatining rivojlanishi;
- XX asrda ommaviy turizmning rivojlanishi;
- XXI asr boshidagi xalqaro turizm.

Biz yuqoridagi ma'lumotlarni o'rganish orqali turizmning vujudga kelishi va qanday davrlarga ajratilishini dunyo olimlari miqiyosida o'rganib chiqdik. Endi esa, sharqda asosan O'zbekistonda turizmning paydo bo'lishi, rivojlanishi. Tarixi, turlari va bugungi kundagi tutgan o'rni haqida quyida batafsil to'xtalamiz.

O'zbekistonda turizmning yuzaga kelishi va tarqalishi asosan mamlakatning boy madaniy va tarixiy merosi bilan bog'liq. O'zbekiston hududida qilingan sayru-sayohatlar haqidagi ko'plab manbaalarni uchratish mumkin. Ya'ni o'tmishda ajdodlarimiz ijtimoiy hayot kechirishlari davomida ko'chmanchi sifatida ham har xil joylarda istiqomat qilganlar. Oilaviy va qavm-qarindoshlar jamlanib, bor mol-mulkini turli ulovlarga (ot, ho'kiz, eshak, tuya, xachir shu kabilar) ortib yaylovlar, cho'llar, tog'li joylarga ko'chib yurganlar. Shu zaylda bir joydan ikkinchi bir hududga ko'chib yurish albatta mashaqqatsiz bo'lmagan. Shunday bo'lsada tabiiy sharoitlarda, yaylovlarda hayot kechirish, zilol suvlardan bahramand bo'lish, oftob nurlarida toblanish va shu kabi tabiiylikning o'ziga xos lazzatlaridan bahramand bo'lganlar.

Ajdodlarimizning sayr-sayohatlarini ko'z oldimizga keltirish uchun "Avesto", "Alpomish", "Go'ro'g'li", "Qirq qiz", "Tohir va Zuhra" kabi o'nlab dostonlar, "Temur tuzuklari", "Boburnoma" kabi badiiy, ilmiy, geografik asarlar misol bo'la oladi. Ayniqsa, buyuk sarkarda, Sohibqiron Amir Temurning jahonni kezishi, Boburning Hindiston tomon sarguzashtlari va uy erda kechirgan hayotiy tafsilotlari sayr-sayohatning mazmunini yanada to'ldiradi.

O'zbekistonda turizmning dastlabki rivoji XX-asr boshlariga borib taqaladi. o'sha davrda asosan SSSRning boshqa hududlaridan kelgan sayyohlar mamlakatning tarixiy shaharlari va arxeologik yodgorliklariga qiziqish ko'rsatishgan. Oradan bir qancha vaqtlar o'tib, Sovet tuzimi turizmni davlat tomonidan nazorat qilinadigan soha sifatida tatbiq etib, bu sohadan keladigan daromadlarning qayta taqsimlanish muammosi ham ma'lum bo'lganidek "Markaz" tomonidan hal qilingan. Ma'lumotlarga ko'ra 1985-89 yillarda O'zbekistondagi ichki va hududiy turizmning xajmi 1,4-1,6 mln kishini, bunda chet ellik turistlarning miqdori atiga 130-180 ming kishini tashkil etgan. 1985 yilga kelib Turkiyada 1,5 mln, 1992 yilda esa 7 mln, 2003 yilda esa 11 mln atrofida xorijiy turistlar tashrif buyurishdi. 1981 yilda Vengriya 14,2 mln turistlarni qabul qilgan bo'lsa, 1991 yilga kelib bu miqdor 19,1 mlnga yetdi. 1992 yilda O'zbekistonning turistik sohasi chet ellik turistlarga faqatgina 27 ta, 2003 yilda esa 50 dan ortiq xizmat turini taklif etdi. Bu vaqtda esa Turkiya, Italiya va Ispaniya kabi mamlakatlarda ushbu ko'rsatkich 250-400 ni tashkil etadi.

Vatanimiz mustaqillikka erishgandan so'ng Yurtboshimizning bevosita tashabbuslari bilan turizmni rivojlantirish ustuvor masalaga aylandi. Asosiy e'tibor mamlakatni dunyo hamjamiyatiga tanishtirish va tarixiy, madaniy meros obidalarini saqlash va rivojlantirishga qaratildi.

O'zbekiston Respublikasida turizm infratuzilmasini rivojlanishini beshta bosqichga bo'lish mumkin:

Birinchi bosqich (oʻz ichiga 1992 yilni oladi). Ushbu bosqich Respublikamizda milliy turizmning dastlabki shakllantirilishi bilan xarakterlanadi. Bu bosqichda turizm infratuzilmasida yetakchi hisoblangan “Oʻzbekturizm” milliy kompaniyasiga asos solindi.

Ikkinchi bosqich (1993-1995 yillar). Bunda turizmning milliy rivojlanish modeli ishlab chiqildi. Ushbu bosqich turistik xizmatlar koʻrsatish hajmining oshib borishi bilan birgalikda yangi turistik yoʻnalishlarni ishlab chiqish, xizmat koʻrsatishni yaxshilash, turizmning moddiy-texnik bazasini kengaytirish, boshqaruvning tashkiliy strukturasi takomillashtirish va boshqa shu kabilar bilan bogʻliq boʻlgan bir qator muammolarni yuzaga keltirdiki, ularni faqatgina “Oʻzbekturizm” milliy kompaniyasi doirasida hal etish imkoni boʻlmay qoldi. Kompaniya turistik operatorlar bilan toʻgʻridan-toʻgʻri aloqa qilish maqsadida Germaniya (Frankfurt-Mayn), Buyuk Britaniya (London), A+SH (Nyu-York), Birlashgan Arab amirliklari (Sharja) va Rossiya (Moskva) kabi mamlakatlarda oʻzining vakolatxonalarini ochdi.

Uchinchi bosqich (1995-1997 yillar). Bunda turistik xizmatlar sohasida xususiylashtirish jarayoni boshlandi. 1996 yilning boshlarida “Oʻzbekturizm” milliy kompaniyasi tizimidagi turistik obyektlar umumiy miqdorining 90 foiziga yaqini davlat tasarrufidan chiqarildi.

Toʻrtinchi bosqich (oʻz ichiga 1998 yilni oladi). Koʻplab mutaxassislarining baholashlaricha, bu bosqichda eksport salohiyatini oshirish, valyuta, turistlar, xususiylashtirish va investitsiyalarni barqaror oqimini taʼminlash uchun imkoniyat yaratildi. Respublikada milliy turizmni jahon andozalari darajasida shakllantirish, turizmga bilvosita tegishli boʻlgan xizmat koʻrsatish infratuzilmasini, xususan, turistlarni xorijdan kutib oladigan chegara, bojxona va aeroport xizmatlarini qayta shakllantirish boshlandi.

Beshinchi bosqich (1999 yil maydan hozirgi davrgacha). Ushbu bosqichda oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining "Turizmni rivojlantirishning davlat dasturi toʻgʻrisida"gi Farmoni nafaqat mamlakatdagi milliy va xalqaro turizmni tutgan oʻrnini mustahkamlash uchun siyosiy asosni shakllantirdi, balki uning iqtisodiy asoslarini mustahkamlash imkoniyatini berdi. Ushbu meʼyoriy hujjat asosida turistik korxonalariga qoʻshimcha boj imtiyozlari berildi. Bundan tashqari, Oʻzbekistonning xorijiy mamlakatlardagi diplomatik vakolatxonalarida turizm boʻyicha maslahatchi lavozimi joriy etildi. Ushbu yilning avgust oyida mamlakat Parlamentida «Turizm toʻgʻrisida»gi qonun qabul qilindi va buning natijasida turizm sohasini faoliyat koʻrsatishining huquqiy asoslari yanada takomillashtirildi.

Insoniyatning ijodi va yaratuvchanlik sohalari kengayishi oqibatida turizmning ham oʻziga xos turlari bir-birdan ajralib chiqib boshladi. Tabiat manzaralarini koʻrish, ziyorat qilish, oʻz hududidan boshqa joydagi oʻzi uchun nomaʼlum boʻlgan joylarni borib koʻrish ishtiyoqi yoki boʻlmasam hali umri davomida qilib koʻrmagan istalgan mashgʻuloti bilan shugʻullanib korish ishtiyoqi va shu kabi insoniy xoshish istaklar hozirgi kunda keng tarqalgan va rivojlanib borayotgan aktiv va passiv turizm turlarini keng yoyilishiga sabab boʻldi desak mubolagʻa boʻlmaydi. Aktiv va passiv turizm deganda albatta inson harakatining ishtiroki qancha kuch talab etilishiga koʻra guruhga ajratilishi tushuniladi. Katta jismoniy kuch talab qilinadigan va hamma turistlar qatlamiga toʻgʻri keladigan turizm turlari aktiv deb yuritiladi va bunga sport, har xil sarguzashtli sayohatlar va ekstremal dam olish (deltaplan va paraplanda uchish) kabilar kiradi. Passiv turizm esa koʻproq inson ruhiyatini dam oltiradigan manzillarga borish, davolanish uchun uyushtiriladigan sayohatlar, ziyorat turizmi va gastronomik turizm kabi jismoniy zoʻriqlashlarga xos boʻlmagan turlar kiradi.

Zamonaviy turizmning xususiyatlarini belgilash maqsadida uning geografik va turistik talab yoʻnalishlari, safar maqsadi, harakatlanish usuli, turistlarni joylashtirish vositalari va ishtirokchilar soni boʻyicha tashkiliy-huquqiy shakllarini tasniflab olish ahamiyatlidir. Ushbu mavzu yuzasidan ilmiy ish olib borgan olimlarimiz M.A. Mirzayev va M.T. Aliyevlar 7 xil kategoriyada turizm turlarini tasniflaganlar:

№	Tasniflanadigan belgilar	Turizm turlari
---	--------------------------	----------------

1	Geografik va turistik talab yo'nalishi bo'yicha	Milliy turizm Xalqaro turizm Hududiy(mintaqaviy) turizm Ichki turizm Kiruvchi turizm Chiquvchi turizm
2	Maqsadlar bo'yicha	Tarixiy obidalar turizmi Arxeologik turizm Rekratsionturizm Sog'lomlashtiruvchi turizm Malakaviy ish turizmi Ilmiy turizm Sport turizmi Shop-turlar Diniy turizm(haj safari, ziyorat bilan bog'liq safarlar) Qo'msash, sog'inish turizmi Ekoturizm Ovchilik turizmi Gastronomiya turizmi Safari turizmi Speleoturizm Ma'rifiy turizm Ekstremal turizm Etnografik turizm Ta'lim turizmi Davolanish turizmi
3	Moliyalashtirish manbai bo'yicha	Sotsial turizm Tijoriy turizm
4	Ishtirok etuvchilar soni bo'yicha	Individual-yakka Guruhli(stixiyali tuzilgan guruh) Guruhli (bir -biriga tanish insonlardan tuzilgan guruh)
5	Tashkiliy shakllari bo'yicha	Tashkillashtirilgan Tashkillashtirilmagan
6	Ishtirok etuvchilarning yosh tarkibi bo'yicha	Bolalar turizmi O'smirlar turizmi Yoshlar turizmi O'rta yoshdagilar turizmi Nafaqa yoshidagilar turizmi
7	Ishtirok etuvchilarning o'ziga xos xususiyatlari bo'yicha	Oliaviy turizm Jismoniy imkoniyatlari cheklangan insonlar turizmi

	Mavzuli turizm
--	----------------

Bizning fikrimizcha ushbu tasniflashda ayrim chalkashliklar mavjud. Masalan, turizmdagi turlarga, turistlar sonini, harakatlanishini, xizmatlar turini aralashtirish, turizmdagi haqiqiy turlar xilini aniqlashni qiyinlashtiradi, haqiqiy turlarning qaysilari ahamiyatliroq va qaysi turlar o'z salohiyati bo'yicha keyinroq turishini ajratish mushkullashadi. Taklifimiz shundan iboratki: yuqorida birinchi kategoriya bo'yicha berilgan ichki kiruvchi va chiquvchi turizmni turizm turlari deb emas balki, statistika uchun kerak bo'ladigan turistlar harakati deb olsak yanada aniqroq bo'lar edi. Negaki, turizmdagi tur bu ma'lum bir qiziqish obyekti, turistik resurs makon bo'lishi lozim. Bundan tashqari ekstremal turizmni alohida tasnif sifatida keltirishdan ko'ra uni sport turizmi ostida qoldirish ma'nili hisoblanadi. Chunki, sport turizmining o'zi ham to'rtta turga: tog'- chang'i turizmi, golf, dayv hamda ekstermal turizmlarga ajratilgan. Shuningdek, malakaviy ish turizmi bilan ilmiy va ta'lim turizmlarini birlashtirish ham o'rinli deb hisoblaymiz. Xulosa o'rnida shuni aytish joizki turizmning dunyo va mamlakatimiz rivojida o'zni beqiyosdir. Nega deganda jamiyki inson o'z ehtiyojlaridan ortib yoki ayrim sababga ko'ra o'z hududidan boshqa bir manzilga borishiga to'g'ri keladi. Shu boisdan ham hammaning "ishi tushadigan" turizmni tarixi va bugungi kudagi o'zni haqida oz bo'lsada ma'lumotga ega bo'lishlari albatta, foydadan holi bo'lmaydi.